



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

## **O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI - YOSHLAR IQTIDORINI NAMOYON QILISH IMKONIYATLARI**

Yarashov Sarvar Norqul o'g'li

UMFT "Gumanitar fanlar" kafedrasи o'qituvchisi

Kaxxorova Dilfuza Abduxakim qizi

2-kurs talabasi, UMFT Pedagogika va Psixologiya yo'nalishi

E-mail: [sarvaryarashov815@gmail.com](mailto:sarvaryarashov815@gmail.com)

Telefon: +99899 556-21-67

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yoshlar tarbiyasidagi o'rni ochib berilgan. Yoshlarga oid davlat siyosatini davom etirishda yangicha go'yalar tashkil etish kabi bir qator masalalar ko'rilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston,yoshlarga oid davlat siyosati,iqtidorli yoshlar,besh tashabbus,ma'naviy barkamollik,uchinchchi Renesseans.

## **ГОСУДАРСТВЕННАЯ МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В УЗБЕКИСТАНЕ – ЭТО ВОЗМОЖНОСТЬ ПРОЯВИТЬ ТАЛАНТЫ МОЛОДЕЖИ**

Преподаватель кафедры "Гуманитарные науки"

Ярашов С.Н.

Студент факультета Педагогики и Психологии

Университета UMFT Каххарова Д.А.

### **Аннотация:**

В данной статье анализируются основные направления государственной молодежной политики в новом Узбекистане Роль повышения правовой культуры в обществе в воспитании молодежи.



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, государственная молодежная политика, талантливая молодежь, пять инициатив, духовное совершенствование, третий ренессанс.

Teacher of the Department "humanities" S.N.Yarashov  
Student of the Faculty of Pedagogy and Psychology  
UMFT University Qaxxarova D.A.

**Annotation:**

This article analyzes the main directions of state youth policy in the new Uzbekistan. The role of raising the legal culture in society in educating young people is considered.

**Keywords:** New Uzbekistan, state youth policy, talented youth, five initiatives, spiritual perfection, the third Renaissance.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilganganligi va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo‘ldi. Farmon bilan «Yoshlar – kelajagimiz» jamg‘armasi tashkil etildi va ushbu jamg‘arma yoshlarning bisnes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishi belgilab qo‘yildi. Ushbu hujjatga e’tibor qaratilsa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganligini ko‘rish mumkin. Muxtasar aytganda, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda. Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtomoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi sa’y-harakatlarni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tasabbusning ilgari surilishi O‘zbekiston tarixida yoshlar ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi. Yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o‘rgatish masalalari bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalar asosida barcha hududlarda Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari tashkil etiladi. Bu maskanlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o‘rgatilishi, axborot texnologiyalari sohasida bisnes bo‘yicha innovatsion ko‘nikmalar shakllantirilishi bo‘yicha «startap» loyihalarga yordam ko‘rsatilishi. Shuningdek, 2021-yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, bosqichama-bosqich amalga oshirilishi. Yangi tashkil etiladigan kompyuter o‘yinlari markazlari yosh avlodning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan test, viktorina, rivojlanish strategiyalari va



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

boshqa foydali dasturlar bilan ta'minlanadi va yoshlarimizni internetdan unumli foydalanishiga zamin yaratiladi desak ayni mudao bo'ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlar forumida ta'kidlab o'tgandek"Men har gal yoshlarimiz bilan uchtrashganimda, sizlarning g'ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko'nglim tog'day ko'tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O'zbekistonning eng katta boyligi, beba ho xazinasi sifatida yuksak qadrlayman.Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz va azmu shijoatingizga suyanamiz.Barchangiz yaxshi bilasiz, biz bugun o'z oldimizga ulkan marralarni qo'yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Sizlar mustaqillik farzandlarisiz. Ota-bobolaringiz ko'rgan to'siq va qiyinchiliklarni ko'rmay, ozod Vatanda erkin nafas olib voyaga yetayapsizlar.Yuksak maqsadlar yo'lida siz – yoshlar hal qiluvchi kuch bo'lishingiz kerak. Men sizlarning zimmangizga yuklangan ana shunday ulkan mas'uliyatni, tom ma'nodagi tarixiy vazifani sharaf bilan ado etishingizga qat'iy ishonaman.Dunyoda globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi vaziyatda barcha sohalarda yuksak bilimli kadrlarni tayyorlamasak, taraqqiyotdan ortda qolib ketishimiz mumkin.Sizlarga yana bir muhim yangilikni aytib o'tmoqchiman. Keyingi yildan oly ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun Prezident granti joriy etiladi. Agar mavjud Prezident stipendiyasi faqat bir o'quv yili uchun mo'ljallangan bo'lsa, ushbu grant talaba o'qishni bitirguniga qadar, ya'ni, to'rt yil davomida to'lab boriladi. Shuningdek, kelgusi o'quv yilidan boshlab, respublikamizdagi xorijiy oly o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun ham Prezident va davlat stipendiyalari joriy etiladi. Shunday ekan, ularga bugun g'amxo'rlik qilib, iste'dodini rag'batlantirsak, o'ylaymanki, bu ham adolatdan bo'ladi".

Xulosa qilib aytganda davlatning qudratini belgilaydigan omillardan biri bu tili va dini bo'ladigan bo'lsa keyingi novbatda uning kelajagi va avlodni sanaladi.Shubhasiz ma'nan yetuk,jismonan sog'lom,har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetgazdirishdir.Shu ma'noda,bugungi kunda mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash naqadar muhum,ma'suliyatli vazifa ekani barchamizga aniq ayondir.



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

Yoshlarga, bolalarga e'tibor, darhaqiqat, kelajakga qo'yilgan sarmoyadir. Vaholanki kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat qurish yoshlarimizning faol ishtiroki, qo'llab quvvatlashi orqaligina amalga oshadi. Ma'naviyati yuksak, chuqur bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intelektual rivojlangan va professional tayyorgarlikga ega bo'lgan o'g'il-qizlarni tarbiyalash buyuk kelajagimizni ta'minlashiga shubhamiz yo'q. Sababi biz kabi yosh avlodning tomirida buyuk ajdodlarimiz qoni oqmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.2016 yil 14-sentyabrdagi Qonun /<https://lex.uz/docs/3026246>
- 2."Taraqqiyot strategiyasi"markazi.....
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT 72-sessiyasida so'zlagan nutqi //<https://uza.uz/posts/zbekistan-prezidenti-shavkat-mirziyayev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlar forumid so'zlagan ma'ruzasi //<https://uza.uz/posts/o'zbekistan-prezidenti-shavkat-mirziyayevning-o'zbekiston-yoshlar-forumida-so'zlagan-nutqi>.